

1-2

“ТАСДИКЛАЙМАН”
Гулистон шаҳар ХТБ мудири
Артиков С.
2022 йил

Сирдарё вилояти Гулистон шаҳар Халқ таълими бўлимига қарашли “Баҳор” МФЙ
“Тошкент йўли” кўчасида жойлашган 14-сонли мактабни жорий таъмирлаш.

**ТЕХНИК
ТОПШИРИҚ**

Буюртмачи	Гулистон шаҳар ХТБ
Товар (иш хизмат)ларни тури	Сирдарё вилояти Гулистон шаҳар Халқ таълими бўлимига қарашли “Баҳор” МФЙ “Тошкент йўли” кўчасида жойлашган 14-сонли мактабни жорий таъмирлаш.
Объектнинг жойлашган ўрни	Гулистон шаҳар “Баҳор” МФЙ
Товар (иш хизмат)ларни бажарилиши	1. Иштирокчи томонидан ҳудудий солиқ инспекциясидан тасдиқланган қарзи мавжуд эмаслиги тугрисида маълумотнома тақдим қилиниши керак. 2. Иштирокчининг иш тажрибаси ҳақида маълумот тақдим қилиниши керак 3. Иштирокчининг ишчилар сони тугрисида маълумот тақдим қилиниши керак 4. Танлов талабгори тақдим этилаётган маълумот ва ҳужжатларнинг ҳақиқийлиги ва тугрилиги учун жавобгар бўлади. Танлов иштирокчилари томонидан энг паст нарх тақдим қилинишида юқорида курсатиб утилган талабларнинг мавжудлиги инобатга олинади. Юқоридаги талаблар бажарилмаган тақдирда паст нархда хизмат курсатиш иштирокчиларга голиб деб боҳалаш имкониятини бермайди. Конкурс иштирокчиси 1-25 гача бўлган балл қуйиш боҳоланади. Юқорида балл туплаган давогар танлов голиби ҳисобланади. Изоҳ: Лозим топилганда комиссия иштирокчилари томонидан танлов иштирокчиларини молиявий ҳолатини ва иш фаолиятини урганиб чиқилади.
Товар (иш хизмат)ларни бажарилиш алоҳида шартлари	“Буюртмачи” томонидан тасдиқланган нарх-наволардан баланд бўлмаган нархларда
Товар (иш хизмат)ларни бажарилишини бошланиши	2022 йил
Товар (иш хизмат)ларни бажарилишини тугаллаш	2022 йил
Товар (иш хизмат)ларнинг руйхати	Руйхат иловада
Стандартларга риоя қилиш талаблари	Халқаро стандартлар.
Топшириш – қабул қилиш тартиби	Товар (иш хизмат)ларнинг етказиб берилиши ушбу техник топшириқ талабларига биноан қабул қилинади.
Лойиха қиймати	159 247 678 сўм (ҚҚС билан)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Сирдарё вилояти

Sirdaryo viloyati 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Hondamir ko'chasi, 7-uy, Tel. +998 67
226-06-61, E-mail: sirdarya_davekspert@mail.ru, www.ekspertiza.mc.uz www.mc.uz

Yig'ma ekspert xulosasi № 65189

Obyekt nomi « "Sirdaryo viloyati Guliston shahri "Baxor" MFY dagi 14 maktabni joriy ta'mirlash"»

Buyurtmachi - Guliston shahar Xalq ta'limi bo'limi

Bosh loyihachi - "ADONIS PROJECT" MCHJ

Litsenziya AL-001599 20-01-2021 yil

Moliyalashtirish manbai - budget mablag'lari

Bosh pudratchi - tender (tanlov) asosida

Qurilish turi joriy ta'mirlash

Murojaat raqami: № 61173

1. Loyihalash uchun asos

Buyurtmachining buyurtma xati, loyiha topshiriqnomasi, nuqson dalolatnomasi

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

Loyiha topshiriqnomasi, nuqson dalolatnomasi, smeta xujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

"Sirdaryo viloyati Guliston shahri "Baxor" MFY dagi 14 maktabni joriy ta'mirlash" ob'yektining loyihalashtirish ishlari "ADONIS PROJECT" MCHJ tomonidan Guliston shahar Xalq ta'limi bo'limi tomonidan taqdim etilgan loyiha topshiriqnomasi hamda nuqson dalolatnomaga asosan ishlab chiqilgan.

Loyihada Sirdaryo viloyati Guliston shahri "Baxor" MFY dagi 14 maktabni joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish nazarda tutilgan.

Ob'yektda quyidagi ishlar ko'rsatilgan:

A blok bo'yicha:

- Mavjud dereza va romlarini demontaj qilish-100,34 m²;
- AKFA tipidagi (PVX) derezalarini o'rnatish-100,34 m²;
- Binoni tashqi va ichki qismidagi dereza otkoslarini suvoqlash, suv bo'yoqi bilan bo'yash ishlari; (Bajariladigan ishlar ketma-ketligi va hajmlari tasdiqlangan nuqson dalolatnomaga asosan)

B blok bo'yicha:

- Mavjud dereza va romlarini demontaj qilish-29,32 m²;
- AKFA tipidagi (PVX) derezalarini o'rnatish-29,32 m²;
- Binoni tashqi va ichki qismidagi dereza otkoslarini suvoqlash, suv bo'yoqi bilan bo'yash ishlari; (Bajariladigan ishlar ketma-ketligi va hajmlari tasdiqlangan nuqson dalolatnomaga asosan)

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Loyiha topshiriqnomasi, nuqson dalolatnoma, smeta xujjatlari,

6. Ekspertiza natijalari.

Joriy narxlardagi resurs smetasida quyidagilar hisobga olingan: Ishchi quruvchilar o'rtacha 1kishi/soat ish xaki 12% ijtimoiy sug'urta ajratmasi 16925,22 so'mga to'g'rilandi. /2022 yil 2 chorak, Sirdaryo viloyati/ Mashina mexanizmlar mash/soat narxlari Qurilish vazirligining 2022 yil 1 yanvar xolatidagi taqdim etgan ro'yxatiga asosan olingan. Materiallar va jixozlar qiymati QURILISH IQTISODIYOTI INSTITUTI"MCHJ tomonidan ishlab chiqilayotgan joriy narxdagi 2022 yil 2 chorak katalogiga asosan olingan.

Ishchi loyihasiga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

1. Buyurtmachi tomonidan buyurtmachining boshqa xarajatlari bilan smeta xujjatlari umumiy 169 247 729 so'mga taqdim etilgan. Ekspertiza ko'rigi davomida qurilish materiallaridan transport xarajatlari bilan birgalikda 1 710 515 so'mga kamaytirildi. Pudratchining boshqa xarajatlari 17,27% olingan. Smeta xujjatlaridagi kamchiliklar bartaraf etilgandan so'ng, ya'ni qurilish materiallari narxlari va me'yoriy xarajatlarni o'zgartirish natijasida ob'yektning boshlang'ich qiymati 2 563 861 so'mga kamaytirildi.
2. Shartnoma bo'yicha import texnologik uskunalarni sotib olish va yetkazib berish xarajatlari va u bilan bog'liq xarajatlar shaharsozlik hujjatlari ekspertizasidan o'tkazilmaydi.
3. Smeta hujjatlariga asosan qayta qurish ishlarining yakuniy harajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro xujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.
4. Buyurtmachi smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.(sanitariya-epidemiologiya va yong'inga qarshi nazorat xizmatlari hamda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish organlari, avtoyo'l boshqarmasi)
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yanvardagi 15-sonli qarorining 4-ilovasiga muvofiq, II bob 8-band va SHNQ 1.03.06-13 da "Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik xujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchiligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyixa qarorlari bo'yicha) yuklatiladi".
6. Smeta hujjatlarida ko'rsatilgan buyurtmachi va pudratchining boshqa harajatlari miqdori

bo'yicha shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi majburiyatni o'z zimmasiga olmaydi.

7. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

7. Xulosalar.

"Sirdaryo viloyati Guliston shahri "Baxor" MFY dagi 14 maktabni joriy ta'mirlash" ob'yektida ishlarni amalga oshirish bo'yicha tayyorlangan smeta xujjatlari kelgusida kelishish hamda tasdiqlash uchun cheklangan miqdori 166 683 869 so'mga tavsiya etiladi.

Bunda:

- Qurilish montaj ishlari QQS bilan- 159 247 678 so'mni;
- Qurilish montaj ishlari QQS siz- 138 476 242 so'mni;
- Buyurtmachining boshqa xarajatlari- 7 436 191 so'mni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.04.2021 yildagi 684-sonli Qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.01.2022 yildagi 46-sonli qarori talablariga rioya etilgan holda, hamda SHNK 4.01.16-09 ga binoan qurilishning narxi tavsiyaviydir. Tavsiya etilgan bahoni qabul qilish qarorini buyurtmachi va pudratchi birgalikda qabul qiladilar (ShNQ4.01.16-09, 6-bob. 6.4 -bandi).

O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25- moddalari xamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.09.2021 yildagi №579 - sonli qarorining 1 - ilova 3 - bob 29 bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik xujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari bo'yicha buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir".

Bosh mutaxassis: Toshbayev O'ktamjon Abdurayimovich

Ishtirokchi ekspertlar:

ABDUNAZAROV VAXOBIDDIN TURSUNBOYEVICH